



## **BOJXONA ISHIDA TERMINLARNING O'RGANILISHI**

**Berdiyeva Gulmira Xamro qizi**

Termiz davlat universiteti

KLM-2024 magistranti

[gulikhamro@gmail.com](mailto:gulikhamro@gmail.com)/[+998938490426](tel:+998938490426)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola bojxona ishida terminlarning o'rganilishi, sohada qo'llaniladigan o'zlashma so'zlar va ularning salmog'i, tarjima qilish muammolari hamda ularning yechimlari, so'zlarning dixron va sinxron tadqiqi o'rganilgan. Mazkur leksika faqat iqtisodiyot manbasi bo'libgina qolmay, tilshunoslik uchun ham ahamiyatli ekanligi muallif nuqtai nazari bilan berilgan.

### **Annotation**

This article examines the study of terms in customs work, idioms used in the field and their meaning, translation problems and their solutions, dichronic and synchronic study of words. It is given from the author's point of view that this lexicon is not only a source of economy, but also important for linguistics.

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается изучение терминов в таможенной работе, идиом, используемых в этой сфере, и их значения, проблемы перевода и их решения, диахроническое и синхроническое исследование слов. Приводится с авторской точки зрения, что данная лексика является не только источником экономии, но и важна для языкоznания.

**Kalit so'zlar:** bojxona terminlari, soliq, termin, terminologiya, iqtisodiyot, ligvistik yondashuv, boj, to'lov.

**Key words:** customs terms, tax, term, terminology, economy, linguistic approach, duty, payment.

**Ключевые слова:** таможенные термины, налог, термин, терминология, экономика, лингвистический подход, пошлина, платеж.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ko'pgina sohalar singari bojxona tizimi ham tubdan isloh qilindi va sohada qo'llaniladigan terminlar ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti bojxona organlari kadrlarini tayyorlash bilan shug'ullansa, sohaviy terminlarning lingvistik va o'qitish metodikasi tadqiqi bilan D.X.Kadirbekova,



N.A.Martenova, A.B.Adigeneyeva, D.Kamchebekova, O.Axmedov, P.Nishonov, X.Paluanova, F.Abdullayeva, F.Alimovalarning olib borgan izlanishlari salmoqlidir<sup>1</sup>.

Tilshunoslikda faol qo'llaniluvchi terminologiya tushunchasiga e'tibor beradigan bo'lsak, Terminning o'ziga xos xususiyatlariga uning shakli va mazmuniga e'tibor qaratgan, shuningdek terminologiyaga buyurtma berish masalalariga to'xtaladigan birinchi nashrlarning mualliflari D.Lotte, E.Dresen, A.Lesoxin, S.Chapliqin, G.Vinokur, A.Reformatskiy. Ularning fundamental asarlari umumiy xarakterga ega bo'lib, atama nazariyasi, tilning leksik tizimidagi o'rni, shuningdek, ilmiy bilimlarning verbalizatsiyalangan birligi sifatida atamaga qo'yiladigan talablarga bag'ishlangan edi<sup>2</sup>.

Bojxona terminlarining o'rganilishi, avvalo, soliq va boj to'lovlar bilan bog'liq bo'lib, yurtimizning Buyuk ipak yo'lida joylashganligi ham alohida ahamiyatga ega. Chunki savdo karvonlari boshqa mamlakat hududiga o'z mahsulotini olib kirishi uchun maxsus to'lov-boj undirilgan. Manbalarda soliq va boj tushunchalarining vujudga kelishi esa eramizdan avvalgi birinchi mingyillikka taqalishi va Xamurapi qonunlariga borib taqalishi aytib o'tiladi<sup>3</sup>.

Sharqda ilk soliq va boj tizimi hamda terminlari xususidagi ma'lumotlar Xitoy solnomalari (Xun davlati, Turk hoqonligi), shuningdek, Turfon xarobalaridan chiqqan yozma matnlar (V–VI asr) da uchraydi. Ular qadimgi turkiy, sug'd tillarida bo'lib, budda va money jamoalari tomonidan bitilgan. Masalan, bugungi kunda Berlin fondida saqlanayotgan T.M.222 ko'rsatkichli Bulmish ismli kishining soliq to'lash maqsadida Qara O'g'uldan qarzga olgan kumush tanga uchun bergen tilxatida quyidagi qo'lyozma keltiriladi<sup>4</sup>.

Ilmiy jihatdan ushbu soha terminlarining o'rganilishida esa Hamidulla Dadaboyevning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy soha leksikasining taraqqiyotiga doir tadqiqotlari o'rnlidir<sup>5</sup>. L.Z. Budagov, V.V. Radlovnning ilmiy izlanishlarida ham zakot terminining derivation-etimologik jihatlari atroflicha o'rganilgan. Arab xalifaligining dastlabki yillarda zakot faqat musulmon davlatlarida joriy etilganligi, islom

<sup>1</sup>Isakulova.N.Bojxona sohasiga oid terminlarning o'ziga xos xususiyatlari."XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali.2024 №1. B.35  
<http://www.pubedu.uz>

<sup>2</sup>G'afforov N. N. TERMINLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022. B.846.

<sup>3</sup>Шаулов.И.Д,Кан.У.К Солик қонунчилиги асослари.-Т,1999.В.336

<sup>4</sup> Аҳмедов.О.С Ўзбек тилида солик-божхона терминларининг диахрон тадқиқи. "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнанал.№2(21)2018.В.59.<http://www.journal.fledu.uz>

<sup>5</sup>Аҳмедов.О.С Ўзбек тилида солик-божхона терминларининг диахрон тадқиқи. "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнанал.№2(21)2018.В.58.<http://www.journal.fledu.uz>

an'analariga ko'ra, ma'lum boylikka ega bo'lgan musulmon kishilar ko'chmas-mulk, savdo-sotiq va chorva mollarining qirqdan bir miqdorida zakot bergenligi qayd etilgan<sup>6</sup>. Bojxona terminologiyasiga doir ilmiy izlanishlarning keyingi bosqichida rus tilshunosligida E.A.Fedorchenkoning "Rus tilida bojxona ishining terminologik lug'atini shakllantirish va rivojlantish" mavzusidagi mualliflik dissertatsiyasi, o'zbek tilshunosligida esa O. S. Ahmedovning "Soliq va bojxona terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga berilishi" nomli va "Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari" mavzusidagi mualliflik dissertatsiyalarida soliq-bojxona terminlari nafaqat iqtisodiyot kategoriysi xususiyatlari nuqtayi nazaridan, lisoniy tarjimashunoslik tabiatini jihatidan ham milliy til bilan qiyoslab o'rghanish ilgari surildi<sup>7</sup>.

Umuman olganda, bojxona ishida terminlarning o'r ganilishini kuzatar ekanmiz, sohada qo'llaniladigan o'zlashma so'zlar va ularning salmog'i, tarjima qilish muammolari va ularning yechimlari, so'zlarning dixron va sinxron tadqiqi o'r ganilib, ushbu leksika faqat iqtisodiyot manbasi bo'libgina qolmay tilshunoslik uchun ham, qolaversa, soha foydalanuvchilari uchun ham zarur unsur ekanligi yana bir bor anglashiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Isakulova.N.Bojxona sohasiga oid terminlarning o'ziga xos xususiyatlari."XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali.2024 №1.B.35 <http://www.pubedu.uz>

2. G'afforov N. N. TERMINLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022. B.846.

3. Шаулов.И.Д,Кан.У.К Солик қонунчилиги асослари.-Т,1999.B.336

4. Аҳмедов.О.С Ўзбек тилида солик-божхона терминларининг диахрон тадқиқи. "Ўзбекистонда хорижий тиллар"илмий-методик электрон журнанал.№2(21)2018.B.59.<http://www.journal.fledu.uz>

---

<sup>6</sup>Аҳмедов.О.С Ўзбек тилида солик-божхона терминларининг диахрон тадқиқи. "Ўзбекистонда хорижий тиллар"илмий-методик электрон журнанал.№2(21)2018.B..<http://www.journal.fledu.uz>

<sup>7</sup>Ahmedov.O.S Soliq va bojxona terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga berilishi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.2011.B.20.





**Acumen:** International Journal of  
Multidisciplinary Research  
Volume 1, Issue 4

5.Аҳмедов.О.С Ўзбек тилида солиқ-божхона терминларининг диахрон тадқики. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнанал.№2(21)2018.В.58.<http://www.journal.fledu.uz>

6.Аҳмедов.О.С Ўзбек тилида солиқ-божхона терминларининг диахрон тадқики. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнанал.№2(21)2018.В..<http://www.journal.fledu.uz>

7.Ahmedov.O.S Soliq va bojxona terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga berilishi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.2011.В.20.

